

O‘ZBEK TILIGA KIRIB KELGAN NEOLOGIZMLARNING TASNIFI

Oqmirzayeva Umida Normurod qizi

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti Urgut filiali talabasi

E-mail: oqmirzayevaumida@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada bugungi kunda o‘zbek tili leksikasiga kirib kelgan va so‘zlashuv jarayonida faol ishlatilayotgan neologizmlar hamda ularning tasnifiga qaratilgan mulohazalar haqida fikr yuritiladi.

Kalit so‘zlar: leksika, o‘z va o‘zlashgan qatlam, semantik o‘zlashma, til boyitish, stilistik neologizmlar, o‘zlashgan neologizmlar.

Kirish

O‘zbek tili leksik qatlami doim o‘zgaruvchan va vaqt o‘tishi bilan yanhilanib boradi. Har bir sohada yangi so‘zlar va eskirayotgan so‘zlar yuzaga keladi. Leksika boshqa tillarda qabul qilingan so‘zlar, yaratilgan yangi so‘zlar, yangicha atamalar, yangicha iboralar so‘zlarning o‘z ma’nolarini o‘zgartirishlari hisobiga boyiydi. Leksikada yuz bergan o‘zgarishlar til sistemasiga bog‘liq bo‘lmaydi. Yuqorida aytib o‘tilgan jarayon til sistemasi (grammatikasi) bilan bevosita bog‘liq bo‘ladi. Til sistemasi bilan bevosita bog‘liq bo‘lmagan tarzda leksikaga kirib kelgan so‘zlar o‘zlari shakllangan ma’lum bir davrni, jamiyatni qisman ifodalaydi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya

Neologizmlar yunoncha so‘z bo‘lib, neos — yangi, logos — so‘z degan ma’noni anglatadi. Jamiyat taraqqiyoti, hayotning talab-ehtiyoji bilan paydo bo‘lgan yangi narsa va tushunchalarni ifodalovchi so‘zlar. Neologizmlarning yangiligi, dastlab, paydo bo‘lgan vaqtlardagina sezilib turadi: vaqt o‘tgach, ular "yangilik" xususiyatini yo‘qotib, odatda, faol so‘zlar qatoriga o‘tadi. Masalan, o‘zbek tili uchun bir qancha yil davomida yangi hisoblangan marketing, reyting, tender so‘zlari hozirgi kunda umumiste’modagi so‘zlarga aylanmoqda. Tildagi umumiy neologizmlar bilan bir qatorda individual-uslubiy yoki okkazional neologizmlar ham mavjud. Bunday neologizmlar mualliflar tomonidan ma’lum bir kontekstda uslubiy talab asosida yaratiladi. Neologizmlar ilmiy asarlarda shu uslubga xos termin sifatida atash (nominativ) vazifasini bajaradi. Badiiy asarlarda, odatda, uslubiy vazifani bajaradi. Neologizmlarning paydo bo‘lish yo‘llari

xilma-xil bo‘lib, ular tilning mavjud lug‘aviy tarkibi va grammatik qonun-qoidalari asosida yangi so‘z yasash yo‘li, shuningdek, mavjud so‘zning lug‘aviy ma‘nolaridan birini yangi ma‘noda qo‘llash yo‘li bilan va boshqa tilda qabul qilish orqali hosil qilinadi.

Har bir neologizmlarning o‘ziga xos ikkita xususiyati mavjud. Bular: 1)Yangi so‘zni, dastlab, ular paydo bo‘lgan hududni o‘rganayotgan odamlarning ma‘lum bir doirasini tushunadi.

2)Neologizmlar qisqa vaqt ichida yangi bo‘lishi mumkin. Keyin ular hamma uchun tanish bo‘ladi.

Bundan tashqari, Neologizmlar bir necha turlarga ajratish mumkin:

1. Shaklning neologizmlari. Ushbu turdagi neologizm so‘zlarning yoki tilda mavjud bo‘lgan so‘zlarning morfologik o‘zgarishidan kelib chiqadi. Misol: fotojurnalistika, ijtimoiy nasroniy, liberal demokrat yoki popemobil.

2. Semantik neologizmlar. Bunday holda, u allaqachon tilning bir qismi bo‘lsa-da, boshqa sohalarining elementlari yoki jihatlarini belgilash uchun boshqa ma‘no yoki ma‘noda bir xil tilda olingan so‘zlarni nazarda tutadi. Misol: qidiruv tizimi, virusli, parket yoki virus.

3. Funktsional neologizmlar. Neologizmlarning bu tasnifi tilga so‘zlarni qo‘shish zarurati bilan bog‘liq, chunki ma‘lum bir ob‘ekt yoki vaziyatni belgilashning boshqa usuli yo‘q. Chet el so‘zlari ushbu tasnifga kiradi. Umuman olganda, ushbu turdagi atamalar aloqa yanada dinamik bo‘lishiga imkon beradi. Masalan: kilo, jirafa.

4. Ijtimoiy neologizmlar. Ushbu so‘zlar jamiyatga, insonning axloqiy va madaniy harakatlariga bog‘liq ba‘zi jihatlarini tavsiflovchi yoki belgilaydigan barcha so‘zlar bilan bog‘liq. Misol: qo‘mita, ish tashlash, yig‘ilish yoki jamoaviy bitim.

5. Texnologik neologizmlar. Ushbu turdagi neologizm ba‘zi so‘zlar texnologiya va fan sohalarida yuzaga keladigan burilishlar bilan bog‘liq. Ular deyarli har doim boshqa tillardan keladi, masalan, ispancha ingliz tilidan. Ushbu tasnif bugungi kunda eng ko‘p ishlatiladiganlardan biridir. Misol: skaner, server, selfi yoki kibermakon.

6. Stilistik neologizmlar. Stilistik neologizmlar - bu odatda ishlatiladigan so‘zlarga nisbatan ifoda yoki atamaga nisbatan sezgir va ijobiy ohang berish uchun qo‘llaniladigan so‘zlar. Aks holda, ular narsalar idrokini o‘zgartirish uchun mo‘ljallangan so‘zlardir. Misol: marhum, qorong‘i, ko‘r yoki konsert.

Muhokama va natijalar

Yangi paydo bo'lgan so'zlarni turli jihatlariga ko'ra tasniflash mumkin. Avvalo, ularni ijtimoiy-siyosiy atamalar: vazir, vazirlik, devonxona, hokim, tuman, agrofirma, fermer kabi; iqtisodiy atamalar: diler, lizing, injenering, bozor infrastrukturasini; ilm-fan, texnikaga oid atamalar: internet, kompyuter, diskovod, skaner; maktab-maorifga tegishli bo'lgan leksik birliklar: akademik litsey, kollej, dastur singari o'nlab yo'nalishlarga bo'lib yuborish mumkin. O'zlashma neologizmlar ichida o'tkinchi, shoshma shosharlik bilan, sun'iy ravishda hosil qilingan leksemalar ham uchraydi. Masalan: majalla, jarida, oynoma, ochqich, yozg'ich, barnoma, oliy bilimgo'h kabi. Ularni xalq qabul qilmay tezda iste'moldan chiqarib yubordi. O'zlashma neologizmlarning aksariyati quyidagi ikki xil usul bilan: 1) Ichki imkoniyatlar asosida (so'z ma'nosining kengayishi, derivatsiyani qo'llash hisobiga): oshkoralik, muqobillik, qayta qurish, kimoshdi savdosi, hokim, devonxona. 2) Tashqi imkoniyat hisobiga (chetdan so'z olish orqali): modemogramma, videoapparatura, matiz, kik boksing, karate, damas, tiko, neksiya. O'zlashma neologizmlar tilning ifoda imkoniyatlari darajasini belgilaydi. Mustaqillik yillarida hayotimizda katta o'zgarishlar ro'y berdi. Yangi-yangi tushunchalar vujudga keldi. Yangi tushunchalar ko'proq tilning ichki imkoniyatlari:

A) shevalardan so'z olish;

B) so'z yasash imkoniyatidan foydalanish asosida yuzaga keladi.

tillariga kirib borayotgani kabi bizning tilimiz ham turmushimizga kirib kelgan bir qator yangi tushunchalarni ifodalovchi olinma so'zlar hisobiga boyib bormoqda. Qadimdan ma'lumki o'zbek tili leksikasining tashkil topishida 3 komponent muhim rol o'ynaydi. Bular quyidagilardir:

1. Barcha so'zlar eng qadimgi turkiy tildan kelib chiqqan bo'lib, o'zbek tili leksikasining rivojlanishida muhim rol o'ynaydi, bundan tashqari kundalik ishlatiladigan so'zlar va iboralar yuqoridagi unsurlarda o'z ifodasini topadi. 2. O'zlashma so'zlar, bunday so'zlar boshqa tillardan kelgan bo'lib, bular quyidagilar: arab, fors-tojik, rus, nemis, fransuz, ispan, ingliz va boshqalar. Bu so'zlarning qiziqarli tomoni shundaki, ular asosan klassik tillarning birlashmasidan hosil bo'lgan (arab, turk, fors-tojik).

3. O'zlashma neologizmlar, bu turdagi so'zlar tilda mavjud bo'lgan so'zlardan suffiks, prefiks va qo'shimchalar qo'shish orqali yasaladi.

Yuqorida ko'rsatilgan 3 komponentdan tashqari leksikaning rivojlanishiga ikkinchi darajali unsurlar ham yordam beradi. Bular:

- Onomatopeya, bir soʻz shaklidan boshqa bir soʻzning shakllanishi;
- Qisqartirilgan soʻzlar, nomlarning qisqartirilib faqat bosh harflarda ifodalanishi;
- Chet tilidagi soʻzlarning tilimizga kirib kelishi va ularning ishlatilishi tilimizda maʼlum bir yangi soʻzlarning paydo boʻlishiga sabab boʻladi va bu turdagi soʻzlar guruhi oʻzlashma soʻzlar deyiladi;
- Oʻzlashma soʻzlarning asosida soʻzlar yotadi yaʼni oʻzlashma soʻzlarning shakllanishi hech qanday oʻzgarishsiz tilimizga oʻzining shakli va maʼnosi bilan kirib kelishi kuzatiladi. Masalan bar, film, lider;
- Koʻpchilik kishilar hech qanday oʻzgarishsiz, qoʻshimchalarsiz oʻzlashma soʻzlarni yaxshi tanishadi: bar, film, lider, chunki bunday soʻzlar oʻzbek tilidagi soʻzlarning funksiyasini bajaradi, baʼzi bir insonlar esa aksincha qoʻshimcha olgan, oʻzgarishlarga uchragan oʻzlashma soʻzlarni bilishmaydi

Baʼzan soʻzlar boshqa tillardan turli xil yoʻllar bilan kirib keladi. Bunday soʻzlar olinma soʻzlar hisoblanadi. Shuni qiziqki, dunyoda boshqa tillardan soʻz olmaydigan bironta ham til yoʻq. Kurash, yonbosh, chala, halol soʻzlari dunyoning barcha davlatlarining lugʻat tizimiga kiritilmoqda.

Yasalish jihatidan neologizmlar har xil yoʻl bilan yasalishi mumkin, ahamiyatlisi ular har xil tildan kirib kelishi mumkin: arab, tojik, rus, ingliz va Arman. Oʻzbekcha lugʻatlardagi soʻzlarning koʻpchiligini fors-tojik tildagi soʻzlar egallagan va yangi soʻzlar quyidagicha yasaladi: a) Qisqartmalar. Bosh soʻzlar yoki jumlaning birinchi harflari qoʻshilib, yangi soʻzlarni hosil qiladi. b) Tarkibi yoki parasintezi. Ikki yoki undan ortiq soʻzlar yangi atamani tuzish uchun bir joyga toʻplanadi. c) Bypass usullari. Soʻz yasashda hosila qoʻshimchalari ishlatiladi. d) Chet eldan olingan kreditlar. Siz yangi soʻz yaratish uchun boshqa tilga borasiz. Masalan: "hackear" (anglikizm, "buzish" feʼlidan: saytni oʻgʻirlash yoki yashirincha). e) Onomatopeya. Soʻzlar tovush orqali yangi atamalarni olish uchun hosil boʻladi.

Oʻzlashgan qatlam-oʻzbek tili leksikasining boshqa tillardan oʻzlashtirilgan leksemalardan iborat qismi. Masalan, maktab (arabcha), daraxt, gul (fors-tojikcha), bahodir (moʻgʻulcha), afandi (turk), ravshan (soʻgʻdcha), avtobus (ruscha) va boshqalar. Bu qismda arab, fors-tojikcha va rus tilidan oʻzlashtirilgan soʻzlar koʻpchilikni tashkil etadi. Hozirgi oʻzbek tilida fors-tojik tillaridan oʻzlashtirilgan soʻzlar orasida otlar (sartarosh, bazm, barg), sifatlar (badboʻy, badjahl, ozoda), ravishlar (banogoh, doʻstona, tez), bogʻlovchilar (chunki, yoki, agar), yuklamalar (xoʻsh, xuddi), modal soʻzlar (chunonchi, binobarin), undovlar (balli, dod) uchraydi. Shuningdek, fors-tojik tilidan oʻzbek tiliga bir qator prefiks va suffiks oʻzlashgan: Prefikslar -be-, ba-, no-, ham-, kam-

; suffikslar: -kor, -zor, -xo‘r, -parvar, -kash, -paz va boshqalar. Ular dastlab fors-tojik so‘zlari tarkibida qo‘llangan, keyinchalik o‘zbek tilining so‘z yasovchi affikslarning qatoridan o‘rin olib, yangi so‘zlarning yasashida ishtirok etgan: kamsuqum, bebosh, barkamol, hamyurt. Yangilik bo‘yog‘iga ega bo‘lgan so‘zlar tilshunoslikda o‘zlashma neologizmlar ham deb ataladi. Kundalik turmushdagi yangicha munosabatlarni, yangi narsalar va ularning belgilarini, yangi hodisalar, tushunchalarni ifodolovchi lug‘aviy birliklardir. Bunday so‘zlar xususiyatiga ko‘ra ikki turga bo‘linadi:

1. Leksik o‘zlashma neologizmlar.
2. Semantik o‘zlashma neologizmlar.

Leksik o‘zlashma neologizmlar tilga tamoman o‘zlashib ketmagan o‘zbek tilining o‘zida yasalgan yoki boshqa tillardan o‘zlashib butunlay iste‘molga kirmagan so‘zlardir. Masalan, zovut, zamin studiyasi, sarhad, kollej, menejment, bakalavriyat, magistratura, dastur, bar, bojxona, aksiya, bandargoh, tuman kabilar. Semantik o‘zlashma neologizmlar tilda oldindan mavjud bo‘lgan va hozirda yangi ma‘noda ishlatilayotgan so‘zlardir. Masalan, tuman (rayon), viloyat (oblast), do‘kon (magazin), anjuman (konferensiya) va boshqalar.

Xulosa

Barcha tillarning boyish manbalaridan biri, chetdan olingan so‘zlardir. O‘zlashtirish jarayonida o‘sha tilning leksik qatlamlaridan kelib chiqqan holda moslashtirilib o‘zlashtirilishi kerak. Aks holda, bu so‘zlar so‘zlovchilarga qiyinchilik tug‘dirib bu so‘zning asl variantidan foydalanishga olib keladi. Tilimizga kirib kelayotgan so‘zlarni o‘zbek tilida muqobil variantini topish va adabiy tilga kiritish muhim ahamiyatga ega. Shunday qilinsagina, tilda arxaizmlar vujudga kelmaydi va so‘zning ma‘nosi qiymatga ega bo‘ladi.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. H. Dadaboyev. O‘zbek terminalogiyasi. Yoshlar nashriyoti uyi. Toshkent. 2019.
2. Begmatov E.A. O‘zbek tili antroponimikasi. – Toshkent: Fan, 2013-264 b.
3. Rahmatullayev Sh. O‘zbek tili omonimlarining izohli lug‘ati. – Toshkent: O‘qituvchi, 1984.- 108 b.
4. Tursunov U., Muxtorov J., Rahmatullayev Sh. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. T., 1992.
5. Jamolxonov H. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. Toshkent, 2010.